XALQ DEPUTATLARI SARIOSIYO TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 14-fevral VII-4-21-8-116-K/25 Sariosiyo tumani

Sariosiyo tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2025-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalariga asosan, Sariosiyo tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2025-yil uchun yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan tuman Soliq inspeksiyasining 2025-yil 8-yanvardagi 21-00320-sonli xatini ko‘rib chiqib va muhokama etib, xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalariga asosan, Sariosiyo tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2025-yil uchun yer solig‘i stavkalari bo‘yicha tuman Soliq inspeksiyasining 2025-yil 8-yanvardagi 21-00320-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Sariosiyo tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2025-yil uchun yer solig‘i stavkalari bo‘yicha qaror loyihasini xalq muhokamasiga qo‘yish uchun Regulation.gov.uz saytiga 15 kun turganligi hamda ushbu muddatda jami 2 ta mahalla (Shabnam va Konchilar MFY)ga 8 ta takliflar kelib tushganligi inobatga olinsin va ushbu takliflar asosida loyihaga o‘zgartirishlar kiritilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilangan soliq stavkalari asosida (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari uchun mahallalar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (birinchi o‘rinbosar E.Xasanov) hamda tuman Soliq inspeksiyasi (v.v.b. J.Hakimov)ga:

- belgilangan yer solig‘i stavkalariga (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari uchun, ularning hududlarda joylashgan dala, mavze, mahalla, ko‘cha kesimida 0.7 dan 3.0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsentlarni qo‘llashlari yuzasidan ma’lumotlarni ta’minlab berish;

- elektr uzatish liniyalari, umumdavlat aloqa liniyalari, umumiy foydalanishdagi temir yo‘llar, elektr ta’minoti qurilmalari, magistral neft va gaz quvurlari hamda shunga o‘xshash inshootlar band etgan yerlar uchun har bir tuman va shahar uchun o‘rtacha soliq stavkasi asosida yer uchastkalari joylashgan joydagi yetkazilishini ta’minlash;

- jismoniy shaxslarning yer maydonlari uchun olinadigan yer solig‘i (turistik sohalarda joylashgan yer uchastkalaridan tashqari) summasi 2024-yil uchun hisoblangan soliq summasining 1.3 baravaridan oshmasligini nazoratga olish;

- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mavjud yer maydonlari uchun hisoblangan yer soliqlarini o‘z vaqtida va to‘liq to‘lab borishlarini nazoratga olish;

- yuridik va jismoniy shaxslarga hisoblangan yer soliqlari va undirilgan soliqlari to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga har chorak yakuni bilan axborot berib borish vazifasi yuklatilsin.

5. Ushbu qaror “Sariosiyo” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytida joylashtirilsin.

6. Mazkur qarorni ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.Asadov) zimmasiga yuklansin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



DONAYEV
ABDUQODIR
HAYDAROVICH

Xalq deputatlari Sariosiyo tumani
Kengashining
2025-yil 14-fevraldagi
VII-4-21-8-116-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Sariosiyo tumani bo‘yicha yuridik va jismoniy shaxslarga 2025-yil uchun belgilangan yer solig‘ining bazaviy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsentlar
JADVALI

№	Mahalla nomi	2025-yil Yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi		2025-yil Jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi	
		Koeffitsent miqdori	Soliq summasi (1 gektar uchun so‘mda)	Koeffitsent miqdori	Soliq summasi (1 kv.metr uchun so‘mda)
	Viloyat taklifi	**1,30**	**45 760 000**	**1,15**	**379,5**
1	Alisher Navoiy mfy	1,1	50 336 000	1,1	417,5
2	Afrosiyob mfy	1,1	50 336 000	1,1	417,5
3	Anorzor mfy	1,0	45 760 000	1,0	379,5
4	Aeroport mfy	1,1	50 336 000	1,1	417,5
5	Billur mfy	1,2	54 912 000	1,2	455,4
6	Bog‘iobod mfy	1,0	45 760 000	1,0	379,5
7	Bog‘ishirin mfy	1,0	45 760 000	1,0	379,5
8	Bog‘i Samarqand mfy	0,9	41184 000	0,9	341,6
9	Bog‘ishamol mfy	1,0	45 760 000	1,0	379,5
10	Bog‘iston mfy	0,9	41184 000	0,9	341,6
11	Bo‘yrapusht mfy	1,0	45 760 000	1,0	379,5
12	Boysunobod mfy	0,8	36 608 000	0,8	303,6
13	Chilonzor mfy	0,8	36 608 000	0,8	303,6
14	Chosh mfy	0,8	36 608 000	0,8	303,6
15	Daragiston mfy	0,8	36 608 000	0,8	303,6
16	Diydor mfy	1,0	45 760 000	1,0	379,5
17	Do‘stlik mfy	1,0	45 760 000	1,0	379,5
18	Ehtirom mfy	1,0	45 760 000	1,0	379,5
19	Feruz mfy	1,0	45 760 000	1,0	379,5
20	Galabutta mfy	1,0	45 760 000	1,0	379,5
21	Gulobod mfy	1,2	54 912 000	1,2	455,4
22	Jannatmakon mfy	1,0	45 760 000	1,0	379,5
23	Karsh mfy	0,8	36 608 000	0,8	303,6
24	Kelajak sari mfy	0,9	41184 000	0,9	341,6
25	Konchilar mfy	0,8	36 608 000	0,8	303,6
26	Lochin mfy	1,2	54 912 000	1,2	455,4
27	Lutfkor mfy	1,2	54 912 000	1,2	455,4
28	Mirzo Ulug‘bek mfy	1,2	54 912 000	1,2	455,4
29	Ma’dankon mfy	1,0	45 760 000	1,0	379,5
30	Maland mfy	0,8	36 608 000	0,8	303,6
31	Marjona mfy	0,9	41184 000	0,9	341,6
32	Mehr-shafqat mfy	1,2	54 912 000	1,2	455,4
33	Niloba mfy	1,1	50 336 000	1,1	417,5
34	Nilu mfy	0,8	36 608 000	0,8	303,6
35	Niholzor mfy	0,9	41184 000	0,9	341,6
36	Nodirabegim mfy	1,1	50 336 000	1,1	417,5

37	Nurbuloq mfy	1,0	45 760 000	1,0	379,5
38	Nurobod mfy	0,9	41184 000	0,9	341,6
39	Sa’diy Sheroziy mfy	1,2	54 912 000	1,2	455,4
40	Sangardak mfy	1,0	45 760 000	1,0	379,5
41	Sarijar mfy	0,9	41184 000	0,9	341,6
42	Sebzor mfy	0,9	41184 000	0,9	341,6
43	Shabnam mfy	0,9	41184 000	0,9	341,6
44	Sharq yulduzi mfy	1,2	54 912 000	1,2	455,4
45	Sharofobod mfy	0,9	41184 000	0,9	341,6
46	Shahriobod mfy	1,2	54 912 000	1,2	455,4
47	Shirin mfy	0,9	41184 000	0,9	341,6
48	Shohjahon mfy	1,2	54 912 000	1,2	455,4
49	Shoqishloq mfy	0,9	41184 000	0,9	341,6
50	Subxidam mfy	0,8	36 608 000	0,8	303,6
51	Terakzor mfy	1,2	54 912 000	1,2	455,4
52	Tortuli mfy	1,0	45 760 000	1,0	379,5
53	Turmushobod mfy	0,9	41184 000	0,9	341,6
54	Xalqobod mfy	1,0	45 760 000	1,0	379,5
55	Hamkorlik mfy	1,0	45 760 000	1,0	379,5
56	Xonjiza mfy	0,9	41184 000	0,9	341,6
57	Xumoyun (Xufar) mfy	0,8	36 608 000	0,8	303,6
58	Hulkar mfy	0,9	41184 000	0,9	341,6
59	Xurshid mfy	0,9	41184 000	0,9	341,6
60	Yangihayot mfy	1,2	54 912 000	1,2	455,4
61	Yoqutli bog‘ mfy	1,2	54 912 000	1,2	455,4